



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHE'RIY MATNLARNING AHAMIYATI

Abdullayeva Zarnigor

O'zbekiston -Finlandiya Pedagogika instituti
Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lif) fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu ishda o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar va metodlar ko'rsatib berilgan. Maqolada she'riy matnlarning o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va dunyoqarashini rivojlantirishda tutgan o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar. Nutqiy savodxonlik, ijodiy fikrlash, to'g'ri talaffuz me'yorlari

Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshga o'xshatilishi bejizga emas. Naqsh mahorat bilan ishlanishi yoki, aksincha, bo'lishi mumkin. Oilada farzand dunyoga kelishi bilanoq uning ta'lif-tarbiyasiga jiddiy e'tibor beriladi. Birinchi ota-onas, mahalla-ko'y, maktabga chiqqach esa o'qituvchilar zimmasiga mas'uliyat yuklanadi. Yurtimiz kelajagi yoshlarning bilim olishida darsliklarning xizmati beqiyos. O'quvchilarning bilim olishi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash məktəb darsliklari asosiy vazifani bajaradi, desak xato bo'lmaydi. O'quvchi darslikdan bilim oladi, tajriba to'playdi va uni o'z hayotida qo'llashni o'rganadi. Shunday ekan, darsliklarning mukammal va hozirgi zamonda talablariga javob bera olishi kerak. Darsliklarni tayyorlashda o'quvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlarga alohida to'xtalib o'tiladi. Darslik mazmunida mavjud bo'lgan takrorlanishlar bartaraf etiladi, xalqaro tajribaga tayangan holda darslikning dizayniga o'zgartirish kiritiladi. Ayni paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari mazkur darsliklardan foydalanishyapti. Ekspertiza xulosalariga ko'ra ishchi guruh tomonidan Milliy o'quv dasturining barcha komponentlari takomillashtiriladi, darsliklarning yangi variantlari yaratiladi. Milliy o'quv dasturi 2021-2022 o'quv yildidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o'tkazilib, 2026-2027 o'quv yiliga qadar to'liq amaliyatga joriy etilishi kutilmoqda. Misol uchun, ona tili va o'qish savodxonligi fani orqali og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalari, turli matnlarni tushunish, matematika fani orqali matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammolarga yechim topish, tabiiy fanlar orqali tadqiqotchilik va atrof-muhitni asrash, tasviriy san'at orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilingan. Har bir fanda o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, ko'p savodlilikni rivojlantirishga e'tibor berilgan. Masalan, "Ona tili va



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

o'qish savodxonligi" darsligini olaylik. Unda ko'p she'riy asarlar borligiga guvoh bo'lamiz. Bunga sabab she'riy asarlar kichik yoshdagi o'quvchilar uchun qiziq va nutqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Dastlab she'riy asarlar haqida o'quvchilarda qanday tasavvur va tushunchalarga ega ekanligi haqida bilib olsak. Ularga bilimini tekshirish maqsadida quyidagi mustahkamlovchi savollarni beramiz:

She'r deb nimaga aytildi?

She'riy asarlarni o'qiganingizda qanday hissiyotlarni his qilasiz?

Qanday mavzudagi she'riy asarlarni yoqtirasiz?

Darslikda qanday she'riy asarlar bo'lishini istardingiz?

Quyida mana shu savollarga o'quvchilarning bergan javoblarini tinglaymiz. Ularning javoblari asosida berilgan fikrlarga qo'shimcha ma'lumot kiritiladi. She'r bu ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir.

She'rni yod olganda, uni ifodali o'qiganda boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiat va jamiyat hodisalari haqida hayajonlanishlari va tasavvur qilishlari muhim ahamiyatga ega. Yangi darslikda har xil mavzudagi she'riy asarlar o'qitiladi. Ba'zi she'rlarning audiosi ham berilgan. 3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida berilgan "Bog'im" she'riga e'tibor beraylik.

BOG'IM

Dunyoni bog' etishni

Orzu qilar odamlar.

Daraxt ekish sirlarin

O'rgatdilar dadamlar.

O'yib bir gaz chuqurcha,

Nihol ekdim avaylab.

Parvarish qildim dildan

Unga mehrimni boylab.

Ko'kka cho'zib qomatin

Quloch yozar shoxlari.

O'sishidan zavqlanib

Yana mehr boyladim.

Chaman bo'lib ko'rindi

Har bir daraxt,

Har bir shox.

Ko'ring, qanday chiroyli

O'zim bunyod qilgan bog'.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Habib Rahmat

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy savodxonligini oshirishda 3-sinflarda "Bog'im" she'rining tahlilini ko'rib chiqamiz. Bunda o'quvchilarning ayrim so'zlar talaffuzi va imlosi yuzasidan muammolarning kelib chiqishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Birinchi to'rtlikda "daraxt" va "o'rgatdilar" so'zlarini talaffuzini ko'rib chiqsak, "daraxt" so'zining oxiridagi "t" unlisi talaffuzda tushib qoladi, ammo yoziladi. Bu holat nutqimizda ko'p uchraydi. Shunday so'zlar borki, biz ularni talaffuz qilganimizda ba'zi tovushlar tushib qoladi, lekin yozuvda saqlanadi. Masalan, Samarqand, farzand, taxt va h.z. "O'rgatdilar" so'zida "d" tovushi "t" kabi aytiladi, lekin d yoziladi, O' unlisini esa gorizontal holatiga ko'ra til oldi unli qilib talaffuz qilish maqsadga muvofiq.

2-to'rtlikda "nihol", "mehrimni" so'zlarida h tovushi x tarzida talaffuz qilinadi. "Ekdim" so'zida ham d harfi t kabi eshitiladi. Chunki undan oldingi tovush jarangsiz tovush bo'lib, talaffuzda o'zidan keyin jarangsiz tovushni talab qiladi. Shu jihatdan d tovushi t kabi talaffuz qilinsa-da, lekin yozuvda asli holicha yoziladi. Keyingi to'rtlikda esa ko'kka so'zini olsak, bunda jo'nalish kelishigi -ga qo'shimchasi -ka tarzida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Ko'k so'zining oxirgi tovushi -k bo'lganligi uchun -ka shaklida yoziladi. "Zavqlanib" so'zi ham yozuvdagi ko'rinishiga nisbatan boshqacharoq talaffuz etiladi, ya'ni "zavqlanip" tarzida aytiladi. Oxirgi ko'plikda "har" so'zi x tarzida aytilsa-da h yoziladi. Mana shunday kichik bo'lib ko'ringan muammolar o'quvchilar nutqining buzilishiga va so'zlarni noto'g'ri tushunishiga olib kelishi mumkin.

3-sinf o'quvchilari yuqoridagi qoidalarga amal qilgan holda she'rni ifodali, to'g'ri yodlashi va aytishi zarur. She'r tinglovchiga ta'sir o'tkazishi uchun o'quvchi uni qoidaga asoslanib to'g'ri talaffuz qilishi va mimikalar bilan ifodali o'qishi kerak. "Bog'im" she'ri o'quvchilarga qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rib chiqamiz. Bu she'r bahor faslida bo'lган voqealarni aks ettirgan, chunki nihol bahorda ekiladi. O'quvchilar matnlarni nafaqat orfoepik hamda orfografik nuqtai nazardan, balki ma'noviy jihatdan ham o'zlashtirishlari muhimdir. Ushbu she'riy matnda berilgan jumlalarni ma'noviy jihatdan kengroq yoritib bersak, o'quvchilar she'r haqida yanada chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar. Ularga turli jumlalar ma'nosini tushuntirib borish kerak. Masalan, "Mehr boyladim" deganda nimani tushundingiz? Yana kim yoki nimaga mehr beramiz? Ushbu birikmaning ma'nosi, uning ko'chma ma'noda qo'llanayotganini anglash uchun suhbat o'tkaziladi. Yana shunday ko'chma ma'noda qo'llanuvchi "mehr qo'ydim", "ko'nglim ketdi", "dilimdan joy oldi" singari birikmalarning ma'nolari ham izohlanib ketishi mumkin.

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

"Bunyod" so'zining ma'nolarini aniqlang.

- A. Barpo etmoq
- B. Paydo bo'lmoq
- D. O'stirmoq
- E. Yaratmoq
- F. Parvarishlamoq

Ushbu testda birdan ortiq javob to'g'ri kelishi mumkin. Shu orqali bir so'z bir necha xil ma'noda qo'llanishi mumkinligi qo'shimcha misollar asosida tushuntiriladi. She'riy matnlarini shu metodlar orqali berib borish ularda yaxshi natijalar kuzatilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunda ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish, ta'lim tizimining eng muhim muammolaridan biri. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari orfoepik va orfografik bilimlarni mukammal egallaganliklari holda o'sha bilimlarini o'quvchilarga yetkaza olishi kerak. Bu yo'lida uchraydigan muammolarni hal etish yo'llaridan biri – o'qitish jarayonida o'quvchilar bilan individual ishslash hamda ularning nutqida yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish uchun she'rlarni ma'nosini tushungan holda ko'proq yodlatish muhimdir. Bu esa o'quvchilarni faollashishigagina emas, balki mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashini shakllantirish bilan birga ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lishi hamda ijobiy kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent. 2020-yil, 23-sentabr.
2. Ona tili o'qitish metodikasi. K.Qosimova Toshkent-2009
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik /K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
5. Internet ma'lumotlari